



JINOYAT PROTSESSIDA APELLYATSIYA: ASOSIY JIHATLAR VA TARTIBLAR

M.A.Sattorova

Toshkent shahar yuridik texnikumi o'qituvchisi, yu.f.n.

***Annotatsiya.** Maqolada jinoyat protsessida apellyatsiya berish asoslari ko'rib chiqiladi. Huquqni qo'llashdagi xatolar, dalillarning yetarli emasligi yoki ortiqchaligi, protsessual qoidalarning buzilishi kabi asosiy jihatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada ushbu asoslardan amalda foydalanishning turli ssenariylarini aks ettiruvchi apellyatsiya ishlari misollari tahlil qilingan. Qonunchilik va sud amaliyotiga tayangan holda muallif o'quvchiga jinoiy sudlov kontekstidagi apellyatsiya jarayoni haqida to'liq tushuncha beradi.*

***Kalit so'zlar:** shikoyat qilish, jinoiy ish yuritish, apellyatsiya qarorlari, apellyatsiya uchun asoslar, huquqni qo'llashdagi xatolar, jinoyat protsessida dalillar, tegishli tartibni buzish, sud qarorlarida adolatlilik.*

Odil sudlovni amalga oshirish jarayonida xilma-xil holatlar, turli vaziyatlar yuzaga keladi. Ba'zan dalillarni tadqiq etishdagi sovuqqonlik yoki e'tiborsizlik oqibatida protsess ishtirokchilarining qonuniy huquq va manfaatlarining buzilishi yoki ayblovdan bosh tortish kabi holatlar vujudga keladi. Bunday sharoitda sudning haqiqatni aniqlashi qiyinlashadi, hatto sud qarori adolatsiz chiqarilishi ham mumkin. Bunday holat afsuski, uchrab turadi. Shularni e'tiborga olib, jinoyat-protsessual qonunchiligida 2001-yildan boshlab protsessual qonunchilikning eng muhim institutlaridan biri ishlarni apellyatsiya instansiyasi tartibida ko'rib chiqish qoidasi joriy etildi. Apellyatsiya (lotincha appellation - murojaat, yordam so'rash, shikoyat qilish) jinoyat protsessi bosqichlaridan biri bo'lib, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hukm, ajrim, qarorlarining qonuniyligi, asosiligi va adolatliligini tekshiradi. Apellyatsiya sudining asosiy vazifasi hukm va ajrimlarning qonuniy, asosli va adolatliligi bo'lishini ta'minlash maqsadida qonun buzilishni, jinoiy ishdagi xato va kamchiliklarni tez muddat ichida bartaraf qilishdan iborat. Ayni vaqtda apellyatsiya instansiyasi fuqarolar huquqlari himoyasini ta'minlaydi, tergov va sud organlari faoliyatida qonunchilikni mustahkamlashga yordam beradi, noqonuniy hukmlar ijro etilishining oldini oladi. Qonunning quyi bosqichdagi sudlar tomonidan to'g'ri va bir xilda talqin qilinishiga va qo'llanishiga ko'maklashadi. Apellyatsiya instansiyasining huquqiy ahamiyati katta. U odil sudlov va shaxs manfaatlarini uchun zarurdir. Apellyatsiya tartibida ish yuritganda sud hukmni bekor qilishga, ishni qayta tergov yoki sudga ko'rib chiqish uchun yuborishga, hatto hukmni bevosita o'zgartirishga, jinoyat ishini tugatishgacha haqlidir. Apellyatsiya instansiyasida ish yuritish birinchi instansiya sudidagi qoidalari bo'yicha, shuningdek, JPKning 55-bobida (apellyatsiya tartibida ish yuritish) bayon etilgan qoidalar bo'yicha o'tkaziladi. Demak, apellyatsiya instansiyasida ham ish mazmunan ko'riladi.



Kassatsiya va nazorat instansiyalarida esa moddiy va protsessual normalarning to'g'ri qo'llanilganligi tekshiriladi, xolos.

Apellatsiya instantsiyasi quyidagi aniq vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan: qonunga xilof, asoslantirilmagan, adolatsiz hukm, ajrim va qarorlar qonuniy kuchga kirishining oldini olish; sud xatolarini aniqlash va tezda to'g'rilash; quyi sudlar ish sifatini oshirish; sud amaliyotini qat'iy qonun talablariga muvofiq yo'naltirish. Apellatsiya instantsiyasi o'z navbatida hukm, ajrim va qarorlarning qonuniyligi va asosliligi yuzasidan prokuror nazoratini amalga oshiruvchi vosita hisoblanadi, Prokuror protest bilan apellyatsiya instansiyasiga murojaat qilib, sud tomonidan apellyatsiya shikoyati va protestini ko'rishda faol ishtirok etadi hamda noqonuniy va asoslantirilmagan hukmlar ning bekor bo'lishiga, fuqarolarning buzilgan huquqlari tiklanishiga erishadi.

Hukmlar qonuniyligi, asosliligi va adolatligi yuzasidan appellatsiya tekshiruvchi faqat birinchi instansiya sudi muhokamasini emas, jinoyat ishini qo'zg'atish, dastlabki tergov va ishni ayblov xulosasi bilan sudga berishning qonuniyligini aniqlashni ham nazarda tutadi. Surishtiruvchi, tergovchi va prokuror faoliyatining qonuniyligi va asosliligi apellyatsiya instansiyasi sudida ham tekshiriladi. Jinoyat protsessida appellatsiya instansiyasi mavjudligi ushbu shaxslarning qonun talablariga qat'iy rioya qilishiga olib keladi. Shuning uchun appellatsiya instansiyasi barcha jinoyat-sudlov ishlarini yuritish qonuniyligining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Birinchi instansiya sudining hukmi ustidan appellatsiya shikoyat va protestlari hukm e'lon qilingan kundan e'tiboran o'n sutka ichida, mahkum, oqlangan shaxs, jabrlanuvchi tomonidan esa ularga hukm nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shunday muddat ichida berilishi mumkin. Apellatsiya tartibida ish yuritishning ahamiyati shundaki, u sud faoliyatining birligini ta'minlaydi. Qonunlarni bir xilda tushunish va tatbiq etishga ko'maklashadi. Sud amaliyotidagi kelishmovchiliklarni bartaraf qilib, dastlabki tergov, prokuratura va sud organlari faoliyatida qonuniylikni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; Toshkent-2023
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi; Toshkent-2024
3. Jinoyat-protsessual huquqi . Darslik. Mualliflar jamoasi // -Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021.
4. Jinoyat-protsessual huquqi (Maxsus qism). Darslik. Mualliflar jamoasi // - Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. 238-290-betlar. <https://library.tsul.uz/jinoyat-protsessual-huquqi-maxsus-qism-2018/>
5. O'zbekiston Sudyalar Assotsiatsiyasi. Sud majlisini olib borish tartibi. 2016. <https://library.tsul.uz/sud-mazhlisini-olib-borish-tartibi-2016/>



6. Jada Hector, David Khey. Criminal Justice and Mental Health. Springer International Publishing AG, part of Springer Nature 2018. <https://link.springer.com/book/10.1007/978-3-319-76442-9>
7. Jumayev, F. B. (2023). Legal Services for Collection of Expenses: Problems and Proposals. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 3(6 (International Scientific Researcher)), 9-13.
8. Criminal Justice Act 1988 ss.23,25,26 - admission of..., Crim. L.R. 1992, Dec,... <https://1.next.westlaw.com/>

